

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
QARARI**

2023 - yil 20 - fevral

71-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasida davlat aktivlaridan samarali foydalanishni tashkil etish to'g'risida**

«Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida»gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-yanvardagi «Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki obyektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4933-sonli, 2019-yil 19-fevraldagi «Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5666-sonli, 2020-yil 27-oktyabrdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-6096-sonli, 2021-yil 8-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida»gi PF-6258-sonli Farmonlari, 2020-yil 11-noyabrdagi «2020-2023 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4889-sonli, 2022-yil 30-maydagi «Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarida tadbirkorlikni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-264-sonli, 2017-yil 16-iyuldagi «Davlat mulkiy obyektlarini sotish tartib-tamoyillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 3067-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi «Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida»gi 279-sonli qarori, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Hududiy tanlov komissiyasining 2023-yil 30-yanvardagi 01-08/9-01/57-sonli majlis bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish yuzasidan belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Hududiy tanlov komissiyasining 2023-yil 30-yanvardagi 01-08/9-01/57-sonli majlis bayoni bilan qabul qilingan qarorlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

ommaviy savdolar orqali sotiladigan davlat ko'chmas mulk obyektlari ro'yxati **1-ilovaga** muvofiq;

avvalgi xususiylashtirish dasturiga kiritilgan va bugungi kunda baholangan bahoda ommaviy savdoga chiqariladigan davlat ko'chmas mulk obyektining ro'yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (M.Radjabov) ushbu qarorning 1 va 2 ilovalarida keltirilgan davlat aktivlarini belgilangan tartibda baholanishini va baholangan narxini boshlang'ich narx sifatida belgilagan holda **“e-auksion”** elektron savdo platformasi orqali ommaviy savdolarga chiqarilishini qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda ta'minlasin.

4. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi (A. Dosnazarov), Nukus tumani hokimi (U.Usnatdinov), Taxtako'pir tumani hokimi (J. Adilov), Chimboy tumani hokimi (A.Tajetdinov) hududlarida xususiylashtirilishi belgilangan davlat aktivlarini sotilgunga qadar uning joriy holatida saqlanishiga, talon-taroj qilinishining oldini olishga hamda boshqacha tarzda uchinchi shaxslarga o'tib ketishining oldini olishda shaxsan javobgarligi belgilansin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Axborot xizmati, Qoraqalpog'iston teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiya boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Axborot agentligi va “Qoraqalpog'iston tongi” hamda “Birja” gazetalarini tahririyati bilan birgalikda ushbu qaror bilan xususiylashtirilishi belgilangan davlat mulki obyektlarini belgilangan tartibda aholi va tadbirkorlar o'rtasida keng targ'ib qilish, maqolalar chop etish hamda ommaviy axborot vositalarida va Internet tarmog'ida keng yoritish ishlarini tashkil qilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrdagi 279-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotish tartibi to'g'risidagi nizomga asosan 5000 kvadrat metrdan ko'p bo'lmagan va strategik ahamiyatga ega bo'lmagan davlat obyektlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasining qaroriga muvofiq xususiylashtirish dasturlariga kiritilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Radjabov) Mo'ynoq tumani hokimligining balansidagi, Mo'ynoq tumani “Bo'zatov” OFYda joylashgan Ustaxona va 1, 2 bostirma binolari (kadastr raqami 23:05:03:01:01:0301); umumiy egallagan maydoni 3000 kvadrat metrdan oshganligi sababli Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengasiga xususiylashtirish haqidagi qaror loyihasi kiritilishini qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ta'minlasin.

8. Mazkur qaror ijrosi ustidan nazorat Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o'rinbosari N.Yerlepsov va Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig'i M.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023 yil 20 fevraldagi  
71-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

### Ommaviy savdolar orqali sotiladigan ko'chmas mulk obyektlari

#### RO'YXATI

T/r	Obyekt nomi	Tuman va shahar nomi	Joylashgan manzili	Maydoni		Kadastr raqami	Balansda saqlovchi	Yuqori turuvchi tashkilot nomi
				Jami yer maydoni (kv.m)	Qurilish osti maydoni (kv.m)			
1	61-qozonxona binosi	Nukus shahri	“Shig'is” MFY I.Yusupov ko'chasi	2963	428	23:12:01:06:02:1079	Komunnaliq issiqlik markazi DUK	Uy joy kommunal xizmat vazirligi

\* Obyektlarning umumiy yer maydoni va bino-inshootlar egallagan maydoniga aniqlik kiritilishi mumkin

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar  
Kengashining  
2023 yil 20 fevraldagi  
71-13-0-Q/23-son qaroriga  
2-ilova

**Avvalgi xususiylashtirish dasturiga kiritilib, bugungi kunda baholangan bahoda ommaviy savdoga chiqariladigan davlat ko'chmas mulk obyektlarining**

**RO'YXATI**

T/r	obyekti nomi	Tuman va shahar nomi	Joylashgan manzili	Maydoni		Kadastr raqami	Balansda saqlovchi	Yuqori turuvchi tashkilot nomi
				Jami yer maydoni (kv.m)	Qurilish osti maydoni (kv.m)			
1	Ma'muriy binosi	Nukus tumani	«Taqirko'l» OFY	1500	542	23:06:04:01:01:0963	Nukus tumani hokimligi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
2	Suv inshooti	Taxtako'pir tumani	«Taxtako'pir» OFY	17800	1283	23:07:07:01:04:1776	Taxtako'pir tumani hokimligi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi
3	FAP binosi	Chimboy tumani	Taza jol OFY	3594	424	23:10:05:01:09:0717	Chimboy tumani xokimligi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

*\* obyektlarining umumiy yer maydoni va bino-inshootlar egallagan maydoniga aniqlik kiritilishi mumkin*